IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

5-6-SINFLARDA LINGVISTIK KO‘NIKMANI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYANING O‘RNI

G‘iyosova Mohinur Yoqubjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va

adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Maqolada 5-6-sinf o‘quvchilarida lingvistik ko‘nikmani shakllantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati yoritiladi.Ona tili darslarida multimedia vositalari,interaktiv metodlar,raqamli ta’lim ilovalaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi.Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchining qiziqishini oshirib,kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi,dunyoqarashini va til bilimlarini chuqurroq anglash va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi

Kalit so‘zlar: lingvistik ko‘nikma, ona tili ta’limi,multimedia vositalari,zamonaviy texologiyalar,interaktiv metodlar,kommunikativ kompetensiya,lingvistik kompetensiya, raqamli ta’lim.

Bugungi axborot texnologiyalari asrida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchilarning bilim salohiyati,mustaqil va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishni talab etmoqda.Ona tili ta’limi nafaqat nutq madaniyatini shakllantirish balki,o‘quvchilarning tafakkurini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.Globallashuv ta’lim sharoitida an’anaviy ta’lim usullari bilan zamonaviy ta’lim bir-biriga uyg‘un holda takomillashib bormoqda.O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib,5-6-sinf o‘quvchilarida innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash ta’lim sifatining sezilarli darajada oshishiga imkon bermoqda. “5–6-sinf o‘quvchilarida nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani shakllantirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish dasturning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi”.[1]

Lingvistik ko‘nikmalarning nazariy asoslari.

Lingvistik ko‘nikma bu o‘quvchilarning til hodisalarini tushunish,tahlil qilish va ulardan muloqot jarayonida samarali foydalanish,fikrni o‘g‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri va tushunarli ifodalay olish qobiliyatidir.Lingvistik ko‘nikma til haqidagi nazariy ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashga asoslangan kompetensiydir.U o‘quvchining til birliklarini anglash va tahlil qilish va faol nutq jarayonida qo‘llash qibiliyatidir.Lingvistik ko‘nikma til sathiga ko‘ra quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:a)fonetik ko‘nikma b)leksik ko‘nikma c)grammatik ko‘nikma d)semantik ko‘nikma e)integrativ ko‘nikma

5-6-sinf o‘quvchilari aynan shu yoshida til birliklarini nazariy jihatini o‘rganish davomida ularni muloqot davimida,kontekstga mos ravishda,avtomatik qo‘llashni boshlaydilar.Shu sababli darslarda faqat bilim berish emas balki malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat muhim hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati.

“5–6-sinf o‘quvchilarida lingvistik ko‘nikmalarni shakllantirishda raqamli hikoya (digital storytelling) texnologiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu yoshdagi bolalar hali ham voqeaband, obrazli matnlarga kuchli qiziqish bildiradi. Shu bois ularga nafaqat tayyor matnni o‘qitish, balki

[1] Ona tili fanidan milliy o‘quv dasturi (5–9-sinflar). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022. – 11–12-betlar.

o‘zlarini hikoya muallifi sifatida sinab ko‘rish imkonini beradigan raqamli muhit yaratish kerak”[2]Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartiruvchi,o‘qitish va o‘rganish imkoniyatlari cheklanmagan manbaa hisoblanadi.Bular ta’lim jarayonini qiziqarli,interaktiv holatda o‘tishini va o‘quvchilarni faollashtirishni ta’minlaydi.O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi va ta‘lim jarayoning sifatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Quyida ularning asosiy imkoniyatlarini keltirilgan.

Shaxsiylashgan ta’lim

Har bir o‘quvchining bilim salohiyati,qabul qilish darajasi va o‘rganish tezligi moslashtirilgan o‘quv ilovalari yordamida aniqlab olish imkoniyati yaratiladi.Zaif tomonlari o‘rganilib,qo‘shimcha mashqlar avtomatik tarzda berilib boriladi,kuchli tomonlari esa mashqlar orqali yanada mustahkamlanadi

Moslashuvchan va uzluksiz talim

Internet mavjud bo‘lgan har qanday sharoitda ta’lim manbalariga ega bo‘lishi mumkin.Nogironli bo‘lgan shaxslar masofaviy ta’lim orqali onlayn videodarslar,mashg‘ulotlar va topshiriqlarni bajarib, o‘z- o‘zini baholashi mumkin.

Mustaqil ta‘limni rivojlantirish

O‘quvchilar darsdan keyingi bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etgan holda,elektron platformalar va internet manbalari asosida darsdan tashqari bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi

Global muloqot va hamkorlik

O‘quvchilar dunyoning turli burchaklaridagi tengdoshlari bilan onlayn muloqot qilib,madaniyatini o‘rganib o‘z fikrlarini o‘zaro almashishi til ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Lingvistik ko‘nikmani shakllantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar.

Lingvistik ko‘nikmalarni (o‘qish, yozish, tinglash, gapirish, shuningdek, grammatika va lug‘at boyligi) shakllantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar an’anaviy darslik va mashqlar imkoniyatlaridan ancha oldinlab ketdi. “5–6-sinflarda ona tili mashg‘ulotlarini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning tinglab tushunish va yozma nutq malakalarini parallel rivojlantirishga xizmat qiladi”.[3] Quyida asosiy texnologik yo‘nalishlar va ularning qanday ishlashi keltirilgan**.**

1.Moslashuvchan mobil ilovalar va til o‘rganish platformalari

Sun’iy intellektga asoslangan Duolingo,Memrise,Lingvist,Quizlet ilovalari foydalanuvchining bilim darajasini aniqlab,unga mos keladigan darslar,lug‘at mashqlari va grammatik testlat tavsiya qiladi.

2.Yozma ish tahlili vositalari.

O‘quvchilarning yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda Language tool, Grammarly,ProWriting aid ilovalari imlo xatolarni topadi,gap tuzilishi va so‘z boyligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi

[2] Hamroyev A.R. Ona tili ta’limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018. – 54–55-betlar.

[3] Ro‘ziyeva D., Usmonova M., Xoliqova Z. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Noshir”, 2017. – 122-bet.

3.Suhbatdosh.

ChatGPT, Character.AI, Langotalk, Andy English Bot orqali o‘quvchilar istalgan mavzuda suhbat qurishi va o‘z suhbatidagi xatolarni tuzatishi,matn bo‘yicha savollar berishi yoki xulosa olishi mumkin.

Ona tili darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar.

Birinchidan,har bir dars davomida interaktiv topshiriqlarni berish o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

Ikkinchidan,texnologiyani darsga moslashtirish dars o‘tish jarayonini osonlashtiradi.Har bir darsga mos materiallar o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

Uchinchidan,an’anaviy dars bilan uyg‘un holatda texnologiyani qo‘llash dars sifatining oshirilishi va yuqori natijani kafolatlaydi.

To‘rtinchidan,o‘quvchilar yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Tadqiqot natijalari va muhokama.

Pedagogik kuzatishlar davomida zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilingan darslarlarda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va faolligi kuchaydi.Interaktiv mashqlar ularning erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi,dunyoqarashini kengaytirdi.Texologiyadan foydalanish davomida o‘quvchilarning ta’lim sifati yaxshilandi.Ular til birliklarini faqat yodlash orqali emas,balki uni muloqot jarayonida avtomatik qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.Raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilingan darslarda o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash faoliyati ham rivojlandi.Ularda o‘z natijalarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘dilar.

Xulosa

5–6-sinflarda lingvistik ko‘nikmalarni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Ular ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning qiziqishini va faolligini kuchaytiradi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda lingvistik bilimlarni amaliy bilan chambarchas bog‘lash imkonini beradi.Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan ona tili darslari fonetik, leksik, grammatik, semantik, integrativ ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi.Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyadan maqsadli va tizimli foydalanish,ta’lim sifatining oshirilishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Ona tili fanidan milliy o‘quv dasturi (5–9-sinflar). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022.
2. Hamroyev A.R. Ona tili ta’limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
3. Ro‘ziyeva D., Usmonova M., Xoliqova Z. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Noshir”, 2017.